



TADQIQOTCHILAR

XUDO *aslida qanday?*

(1-qism)

Qadri do'stim,
sen biron marta Xudo
aslida qanday ekan, deb
o'ylab ko'rganmisan?
Xudo shunchalik ulug'
va shunday go'zalki, biz
hech qachon U haqda
hamma narsani bilib
ololmaymiz. Ammo Xudo
bizga U haqida hikoya
qiladigan ajoyib bir
kitobni bergan.

Bu qanday kitob ekan? Bu – Muqaddas Kitob, Xudoning Kalomidir. Muqaddas Kitob bizga aytishicha, Xudo hamma narsani yaratgan. Xudo Quyoshni va Oyni yaratgan. U kechqurun osmonda miltillab turuvchi millionlab yulduzlarni yaratgan. Xudo Yerni ham yaratgan. U qushlarni, baliqlarni va barcha hayvonlarni yaratgan. So'ngra Xudo ilk erkakni va ilk ayolni yaratdi.

Xudo bizni nima uchun yaratdi? Biz Xudovandni sevish va Uning bizga bo'lgan sevgisidan zavqlanish uchun yaralganmiz. Xudo har birimizni biladi va sevadi.

Xudovand biz Uni tanib-bilishni va sevishni istaganimizda **xursand bo'ladi**. Xudoni tanib-bilish va Uni sevish – bu biz bajarishimiz mumkin bo'lgan eng ajoyib ishdir. Xudovandni tanib-bilish va Unga bo'lgan sevgimiz bizni chindan ham bahtiyor qiladi.

Biz ushbu darsda Muqaddas Kitob Xudo haqida nima deyishi to'g'risida suhbatlashamiz. Biz barchamizni sevuvchi ajoyib Xudo haqidagi beshta muhim haqiqatni bilib olamiz.



XUDO *Shaxsdir*

Faqat yagona haqiqiy va tirik Xudo mavjud. U: “Men Egangman, boshqasi yo‘q, Mendan boshqa xudolar yo‘q!” (Ishayo 45:5)..

Xudo “qandaydir bir kuch” emas. Xudo har birimizni biladigan va sevadigan – tirik Shaxs. Agar biz Uni tanib-bilishni istasak, bundan U mamnun bo‘ladi. U eng avvalo biz Uni chin yurakdan sevimimizni istaydi.

XUDO *Ruhdir*

Xudo-Shaxsdir, ammo Uning biznikiga o‘xshash tanasi yo‘q. Xudo Ruhdir. Biz esa ruhni ko‘ra olmaymiz. Xudo insonni yaratganda unga tana berdi. Har birimizda tana bo‘lgani kabi ruh ham bor. Sening ruhing tanangda yashaydi. Boshqa odamlar bizning tanamizni ko‘rishni mumkinu, ammo ruhimizni ko‘rolmaydi.

Xudo butun borlig‘i bilan Ruhdir. Shuning uchun biz uni ko‘rolmaymiz. Muqaddas Kitobda aytilishicha: “Xudo – Ruhdir, Unga topinuvchilar esa ruh va haqiqat bilan topinmoqlari lozim”. (Yuhanno 4:244).

Biz Xudoni ko‘ra olmasak ham, U baribir yagona haqiqiy va tirik Xudo bo‘lib qolaveradi. U bizning Uni tanib-bilishimizni istaydi. Uni tanib-bilgach, biz albatta Uni sevib qolamiz. Agar sevsak, unda itoat ham qilamiz.

XUDO *shon-shuxratga ega*

Xudoning shon-shuxrati shunchalik ulug‘vorki, biz hatto Unga nazar tashlashga ham bardosh berolmaymiz. Biz quyosh charaqlab turganda unga qaray olmaymiz-ku. Agar biz unga uzoq qarab tursak, ko‘zimiz nurini yo‘qotishimiz mumkin.

Xudoning ulug‘vorligining oldida quyoshning porlashi hech narsa emas. Muqaddas Kitobda Xudovand shunday deydi: “Lekin Mening yuzimni ko‘ra olmaysan. Meni ko‘rgan odam tirik qolmaydi” (Chiqish 33:20).

Muqaddas Kitob bizga Muso ismli bir kishi haqida hikoya qiladi. Xudoning o‘ziga xos do‘sti bo‘lgan. U Xudo bilan gapirgan va Xudo ham u bilan ko‘p marta gaplashgan. Ammo Muso Xudoni hech ko‘rgan emas.



Bir kuni Muso Xudodan “O‘z shon-shuxratingni menga ko‘rsat” (Chiqish 33:18) deb iltimos qildi.

Xudo Musoga: “Sen mening yuzimni ko‘ra olmayсан, chunki Meni ko‘rgan kishi tirik qolmaydi. Ammo Men seni qoyalar ichiga yashiraman va oldingdan o‘tib ketaman” dedi (Chiqish 33:20-21).

Muso toqqa bir o‘zi chiqdi. Xudo uni qoyalar orasiga yashirdi. Keyin Xudo shon-shuxrati va ulug‘vorligida Musoning yonidan o‘tib ketdi. Muso Xudoni ko‘rmadi, ammo Xudoning shon-shuxratining ozginasini ko‘rdi. Bu uning yuzini quyosh kabi porlovchi qildi

Muso tog‘dan tushgandan so‘ng, uning yuzi shunchalik porlar ediki, hatto odamlar qo‘rqib ketishdi. Muso va xalqning: “Sen kabi muqaddasligi bilan ulug‘langan, yana kim bor, ey Egam?!” deb aytishlari ajablanarli emas (Chiqish15:11).

XUDO *muqaddas*

Bu, Xudo pok, mukammal va mutlaqo gunohsiz deganidir. Ba‘zida Muqaddas Kitobda gunoh qorong‘i zulmat bilan tenglash-tiriladi. Muqaddas Kitob Xudo haqida shunday deydi: “Xudo – nur, Unda hech qanday qorong‘ilik yo‘q.” (1 Yuhanno 1:5).

Xudo ulug‘vor va muqaddas. Xudo mukammal. Xudo hech qachon gunoh qilmaydi. Xudo har doim yaxshi va to‘g‘ri ishlarni qiladi. Xudoning huzuriga hech bir gunoh kirolmaydi. Muqaddas Kitobning aytishicha: “Zero, muqaddasdir Egamiz Xudo!” (Zabur 98:9).

Xudo bir kuni Ishayo degan payg‘ambarga vahiy orqali gapirdi. Vahiy xuddi tushga o‘xshaydi. Ishayo vahiyda Xudoni O‘z taxtida ko‘rdi. Taxt atrofida ko‘plab farishtalar bor edi, ular Xudoni ulug‘lashar va xitob qilishardi: “... Muqaddas, muqaddas, muqaddasdir Sarvari Olam! Uning ulug‘vorligi butun olamni to‘ldirgan!”» (Ishayo 6:3).

Ishaya vahiyda Xudoni ko‘rganida, qo‘rqib ketdi. Vahiy unga o‘zining gunohkorligini, Xudoning esa muqaddasligini ko‘rsatdi.



XUDO *sevgidir*

Bu, Xudo bizni sevishi va bizga eng yaxshi narsalarni tilashini bildiradi. Xudo bizni sevishini qayerdan bilamiz?

- **Birinchidan, Xudoning O'zi shunday degan.** Muqaddas Kitobda Xudoning shunday so'zlari yozilgan: "... Men seni abadiy sevgi bilan sevdim..." (Eremiyo 31:3)..
- **Ikkinchidan, bizning o'rnimizga jazolanishi uchun O'z O'g'lini berdi.**

Xudo bizni sevishini bilamiz, chunki U O'z O'g'lini biz uchun o'limga berdi. Muqaddas Kitob shunday deydi: "Lekin biz hali gunohga botgan chog'imizda, Masih biz uchun o'ldi. Bu Xudoning bizga bo'lgan muhabbatidan dalolatdir." (Rimliklarga 5:8).

Ehtimol, sen: "Nahotki Xudo mening barcha yomon so'larimni, ishlarimni va o'ylarimni bilsa?" – deb o'ylashing mumkin. Ha! U hammasini biladi, ammo baribir seni sevadi va sevishdan bir daqiqa ham to'tamatdi.

Rabbiy Iso mening gunohlarim uchun o'ldi. U sening gunohlaringni

olish uchun ham o'ldi. Ammo U o'lganicha qolib ketmadi. Uch kundan keyin U tirildi. Rabbiy Iso – tirik Najotkor. Xudo sening Rabbiy Isoga, ya'ni sening Najotkoring bo'lish uchun, sening gunohlaringni olib o'ldi va qayta tirildi.

Bilasanmi, Xudo sendan ko'proq nimani istaydi? U sening Uni butun qalbing bilan sevishingni istaydi!

Agar sen Xudoni butun qalbing bilan sevsang, **U xursand bo'ladi.** Muqaddas Kitob hikoya qilishicha Podshoh Dovud Xudoni butun qalbi bilan sevgan buyuk odamlardan biri bo'lgan. U shunday degan: "Ey Xudovand, Senga men mehr bog'ladim!" Uning bu qaroridan Xudo mamnun bo'lgan. Sen ham xuddi podshoh Dovud kabi Xudoni sevsang, U juda xursand bo'ladi. Ushbu ibodat senga yordam beradi:

"Qadrli Xudovandim, men Seni sevishimni istayotganingdan juda xursandman. Seni butun qalbim bilan sevishni istayman! Meni shunchalik kuchli sevganingdan va mening gunohlarim uchun O'z O'g'ling, Iso Masihni o'limga yuborganingdan minnatdorman".

Qadrli Xudoyim O'z O'g'lingni
mening gunohlarim uchun
o'limga berganingdan mi-
natdorman.



Men qanday qilib Xudoning
farzandi bo'la olaman?»

1. Sen gunohkor ekanligingni tan ol.
 2. Sening gunohlaring uchun o'lgan Rabbiiy Isoga ishon.
 3. Ibodatda Rabbiiy Isoga murojaat qil va Uni o'z Najotkoring sifatida qabul qil.
- «Rabbim Iso , men gunoh qilganimdan juda af-
susdaman. Sen Xudoning O'g'li ekanligingga va
mening gunohlarim uchun jazo olib o'lganingga
ishonaman. Men Seni o'z Rabbim va Najotkorim
deb qabul qilaman».

Yodlash uchun oyatim





«Ey Xudovand,
mening quvvatim,
Senga mehr bog'ladim...»
(Zabur 17:2).

XAZINANI IZLASH

Sirli koddan foydalanib, topilgan xazinani och.

SIRLI KOD



Savollar sahifasi

«TADQIQOTCHILAR» KURSI 1–1

Qo'llanma: to'g'ri javobni tanla – a yoki b – va savol yonidagi katakchaga yoz.

Masalan: Jannatda...

b

- a) ozroq gunoh bor.
b) mutlaqo gunoh yo'q.

1. Xudo aslida qanday?

- a) Xudo Koinotga ezgulik olib keladigan “qandaydir kuch”.
b) Xudo bizni biladigan va sevadigan tirik Shaxsdir.

2. Biz Xudoni ko'ra olmaymiz chunki...

- a) Xudo bu Ruh, biz ruhni ko'ra olmaymiz.
b) Xudo bizdan shunchalik uzoqki, biz Uni ko'ra olmaymiz.

3. Muqaddas Kitob Xudoni muqaddas degani bu...

- a) Xudo juda yaxshi ekanligini bildiradi.
b) Xudo pok va mukammal, Unda hech qanday gunoh yo'q ekanligini bildiradi.

4. Xudo meni sevishini bilaman, chunki ...

- a) Xudo O'z O'g'lini mening gunohlarim uchun o'limga berdi.
b) Menga shunday tuyulyapti.

5. Xudo mendan ko'proq nima kutadi?

- a) Xudo men Uni butun qalbim bilan sevishimni istaydi.
b) Xudo mening U uchun ko'proq xayrli ishlar qilishimni istaydi.

Yodlash uchun oyatni yoz::

Topgan xazinani yoz:



(Iltimos bosma harflar bilan yoz).

O'z ismi sharifing va otang ismini yoz _____

_____ Tug'ilgan kuni _____

Yoshingnechada? _____ nechanchisinfdao'qiysan? _____

O'z pochta manzilingni yoz: ko'cha, uy, xonadon _____

_____ Shahar _____ Tuman _____

Viloyat _____ Indeks _____

Agar sening biz bilan yozishishni istaydigan do'sting bo'lsa, uning manzilini bizga yubor, biz esa unga xat yozishish uchun taklifnoma yuboramiz.

Do'stimning ism va familiyasi _____

_____ Tug'ilgan kuni _____

Yoshi nechada? _____ Nechanchi sinfda? _____

Manzil: ko'cha, uy, xonadon _____

_____ Shahar _____ Tuman _____

Viloyat _____ Индекс _____



TADQIQOTCHILAR

Xudo qachondir eyrga kelganmi?
Sen bu haqda keyingi darsda bilib olasan!